

G'ADA AS-SAMMAN SHE'RLARINING POETIKASI

Kenjayeva Umida Hamroqul qizi

TDSHU, Arabshunoslik oliy maktabi

1-kurs magistranti

Annotatsiya. Maqola G'ada as-Samman she'rlari poetikasini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, unda adibaning poetik uslubi va badiiy merosi keng yoritiladi. G'ada as-Samman she'riyati she'riyati zamonaviy arab adabiyotida ayol ovozi, muhabbat va iztiroblarni ramziy obrazlar orqali ifodalab, lirika va falsafiy mushohadani uyg'unlashtiradi. Maqolada uning "أعلنت عليك الحب" (*Senga muhabbatni e'lon qildim*) to'plami misolida poetik ramzlar, ritmik tuzilish, mubolag'a va jonlantirish kabi badiiy vositalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: poetika, lirika, ramziy obrazlar, modernizm, muhabbat, iztirob, ayol ovozi, falsafiy mushohada.

Kirish. Adabiyotshunoslikda she'riy matnning badiiy mohiyatini anglash, uning estetik va ma'naviy qiymatini tahlil qilish muhim ilmiy vazifalardan biridir. Har bir shoir yoki adibaning ijodi o'z davrining ruhiy holati, ijtimoiy muammolari va shaxsiy kechinmalarini aks ettiradi. Arab adabiyotining yirik namoyandalardan biri bo'lgan G'ada as-Samman ijodi ham ana shunday ilmiy izlanishlar uchun boy manba hisoblanadi. G'ada as-Samman – Suriya-Livanlik adiba, jurnalist va shoira – zamonaviy arab adabiyotining eng yorqin shaxslaridan biridir. Uning asarlari, xususan, she'riyati, Livan va arab dunyosida, balki xalqaro miqyosda ham katta qiziqish uyg'otgan. O'zining keskin, hissiyotlarga boy va an'anaviy qoliplarni buzuvchi uslubi bilan tanilgan Samman she'riyati chuqur shaxsiy iztiroblarni ijtimoiy va siyosiy tanqid va ustalik bilan bog'laydi. Ushbu maqola G'ada as-Samman she'rlari poetikasini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, uning ijodiy uslubini shakllantirgan asosiy elementlarni o'rganadi. Biz as-Samman she'riyatida ayol

ovozi, erkinlik, sevgi va urush kabi universal mavzularning qanday yangicha talqin etilganini ko‘rib chiqamiz. Shoiraning poetikasidagi ramziylik, til o‘yinlari, keskin metaforalar va lirik nutqning dramatik kuchga ega ekanligini ta‘minlovchi badiiy vositalar alohida e‘tiborga olinadi.. G‘ada as-Samman she‘rlari orqali arab ayolining ruhiy olami, jamiyatdagi o‘rni va erkinlikka intilishi badiiy shaklda ifodalanganini ko‘rish mumkin. Uning she‘riyati zamonaviy arab adabiyotida modernizmning muhim bosqichi hisoblanibgina qolmay an‘anaviy vazn va qofiya qoidalaridan yiroqlashishi, yangi ifoda shakllarini izlashi adabiy landshaftga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Maqolaning asosiy maqsadi – G‘ada as-Samman ijodining badiiy o‘ziga xosligini ochib berish, uning she‘rlarining shunchaki hissiyotlar to‘plami emas, balki chuqur falsafiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan murakkab matnlar ekanligini ko‘rsatishdan iborat.

Asosiy qism. G‘ada as-Samman ijodida she‘riy to‘plamlar alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir to‘plam muayyan davrning ruhiy holatini, ijtimoiy muhitini va shaxsiy iztiroblarini aks ettiruvchi badiiy hujjat sifatida qaralishi mumkin. Masalan, ¹¹⁶”أعلنت عليك الحب“ (*Senga muhabbatni e‘lon qildim*) to‘plami adibaning poetik olamida muhabbat, iztirob, yolg‘izlik va ruhiy kechinmalar qanday badiiy shaklga ega bo‘lishini ko‘rsatadi. Bu to‘plamda ayol qalbining ichki ovozi, jamiyatdagi o‘rni va insoniy qadriyatlar poetik ramzlar orqali ifodalangan. Shoiraning to‘plamlari quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

Tematik rang-baranglik – muhabbat, yolg‘izlik, ozodlik, jamiyatdagi adolatsizlik, milliy qadriyatlar va umuminsoniy g‘oyalar;

Poetik ramzlar – tun, qo‘ng‘iroq, sukunat, yo‘l, dengiz kabi obrazlar orqali ruhiy holatni ifodalash;

Lirizm va samimiyat – shaxsiy kechinmalarni ohangdor va samimiy tarzda berish;

Falsafiy mushohada – insonning mavjudlik haqidagi o‘y-fikrlari, hayot va muhabbatning ma‘nosi haqida chuqur mulohazalar olib borilgan. Jumladan, uning

السّمان، غادة. أعلنت عليك الحب. بيروت: منشورات غادة السّمان، ١٩٧٦ 116

to‘plamlarida ko‘zga tashlanadigan badiiy tasvir vositalari, ritmik tuzilish va mazmuniy yo‘nalishlar tahlil qilinadi. Quyida G‘ada as-Samman ijodining yorqin namunalaridan biri bo‘lgan “أعلنت عليك الحب” (*Senga muhabbatni e‘lon qildim*) she‘riy to‘plamiga tegishli asarlardan parcha keltiriladi. Ushbu to‘plam adibaning poetik olamida muhabbat, iztirob, yolg‘izlik va ruhiy kechinmalar qanday badiiy shaklga ega bo‘lishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, ¹¹⁷“هاتف ليلى” (*Tun qo‘ng‘irog‘i*) nomli she‘ridan olingan parchada inson ruhiyatining kechki sukunatdagi iztiroblari, ichki monolog va ramziy tasvirlar orqali ifodalanganini ko‘rish mumkin.

هاتف ليلى

أه صوتك صوتك !

يأتيني مشحوناً بحنانك،

وتنفجر الحياة حتى

في سماعة الهاتف القارسة .

•

أه صوتك صوتك !

— ويتوقف المساء حابساً أنفاسه —

كيف تحتمل أسلاك الهاتف الدقيقة

هذا الزلزال كله،

وطوفان الفرح، وارتعاشات اللهفة،

ومطر الهمس المضئ

المتساقط في هذه الأمسية النادرة ؟!

كيف تستطيع أسلاك الهاتف الرقيقة

أن تحمل كل قوافل الحب ومواكبه وأعياده

الساعية بيني وبينك

مع كل همسة شوق ؟!

...

لكنني مقيدة إلى كرسي الزمان والمكان

بأسلاك هاتف

السمان، عادة. أعلنت عليك الحب. بيروت: منشورات غادة السمان، ١٩٧٦. ص: ٩-١٢ ¹¹⁷

ومطعونة بسماعته !

آه صوتك صوتك !

وأنصت إلى قلبي ...

يا للمُعجزة : إنه يدق !

Oh, ovozing, ovozing!

U mehring bilan to'ldirilgan holda keladi,

Va hayot portlaydi hatto

Telefonning qattiq (sovuq) quloqchasida ham.

Oh, ovozing, ovozing!

— Va oqshom nafasini ushlab to'xtaydi —

Qanday chidaydi telefonning nozik simlari

Bu butun zilzilaga,

Va shodlik to'foni, vva titroqlarga ,

Va bu nodir oqshomda yog'ilayotgan

Yorqin pichir-pichir yomg'iriga?!

Qanday uddalaydi telefonning nozik simlari

Men va sen oramizda harakatlanayotgan

Sevilishgan karvonlari, safarlari, bayramlarining barchasini ko'tarishni

Har bir sog'inch pichirlashi bilan birga?!...

Lekin men zamon va makon kursisiga bog'langanman

Telefonning simlari ila,

Va uning quloqchasi bilan sanchilganman (jarohatlanganman)!

Oh, ovozing, sening ovozing!

Va men qalbimga quloq tutaman...

Oh, mo'jiza: u urmoqda!

Ushbu she'rning markazida sevgan insonning ovozi va uning oshiq qalbida uyg'otadigan kuchli his-tuyg'ularida namoyon bo'ladi Bu ovoz shunchaki tovush emas, balki lirik qahramonning qalbida kechayotgan iztiroblari kuchli hissiyotlar,

hayotbaxsh energiya va falsafiy mulohazalarni uyg'otuvchi ramziy kuchdir. Lirik qahramon esa telefon orqali kelgan ovozni chuqur his qiladi. She'ning g'oyasi – muhabbatning ruhiy kuchidir. Ovoz oddiy aloqa emas, balki sirli sasdir: Hayotbaxshlik va Ta'sir: Ovozning kelishi bilan lirik qahramonning ichki dunyosida katta o'zgarish yuz beradi. Shoir bu ta'sirni kuchli mubolag'a san'ati orqali ifodalaydi: *Hayot portlashi yuz berar, Hatto u temir, qattiq telefon quloqchasida ham.* jumlasida ovoz nafaqat insonni, balki butun koinotni ham o'z ta'siriga oladi. Bu joyda shoir jonlantirish (tashxis) san'atidan mahorat bilan foydalangan: *Shom nafasini yutib, jim bo'lar* oqshomning "nafasini yutishi" bilan to'xtashi, muhabbat lahzasining cheksiz va abadiy ekanligini, vaqt o'lchamining o'z kuchini yo'qotganini ko'rsatadi. Takror va ishtiyoq ham mavjud. She'rda "آه صوتك صوتك" (*Oh, ovozing, ovozing!*) she'ning musiqiylikini kuchaytiradi, sog'inch va hayajonni ritmik tarzda ifodalaydi va takror lirik qahramonning o'z ma'shuqiga bo'lgan ishtiyoqi va hayratining haddan tashqari kuchli ekanligini anglatadi. Bu tovush qahramonning barcha his-tuyg'ularini faollashtiruvchi sehrli kalitdek go'yo. She'rda ruhiy qaramlikni ham uchratishimiz mumkin. Bu ibora, shuningdek, lirik qahramonning ushbu tovushga bo'lgan ruhiy qaramligini va uning hayotidagi markaziy ahamiyatini ta'kidlaydi. Telefon simlari — ramziy ko'prik va ziddiyat she'ning ushbu qismlarida telefon va uning simlari oddiy texnika emas, balki ishqiy ko'prik sifatida berilgan, ammo bu ko'prikda kuchli ziddiyat mavjud: Bu ziddiyat (paradoks) sovuq, oddiy va nozik bo'lgan simlar go'yoki moddiy olam sevgining barcha bayramlari, karvonlari, shodliklarini ruhiy, ma'naviy olam kabi ifodalanadi qanday qilib o'tkazishi masalasi qo'yiladi. Mubolag'a va Jonlantirish: *Qanday ko'tarar bu nozik telefon simlari Sevgining barcha bayramlari, karvonlari, shodliklarini...* bu misrada karvonlar va bayramlar kabi so'zlar jonlantirish va mubolag'a san'atlari bo'lib, ular sevgining buyukligi va tantanavorligini tasvirlaydi. Telefon simlari esa faqat moddiy bo'lmagan ruhiy ko'prik vazifasini bajaradi. Ovoz zudlik bilan kelib, ichki olamda "zilzila" (qo'rqinchli emas, balki shiddatli uyg'onish) va "shodlik to'foni" ni yuzaga keltiradi. Bu ham yuqori darajadagi

mubolag‘adir. She'ning keyingi qismlarida rivoj topgan yakuniy xulosa shundan iboratki, sevgi kuchiga duch kelgan oshiq qahramon o‘zining himoyasini (chig‘anog‘ini) yorib o‘tishga majbur bo‘ladi. Uning bu ovozga berilgan hissiy hayrati *Oh, ovozing, ovozing! o'zining yagona natijasini beradi: Va men qalbinga quloq solaman... Ey mo'jiza: u urmoqda!* Bu misra she'ning eng kuchli nuqtasi bo‘lib, muhabbatning insonni ruhiy o‘limdan (sovishdan) qutqarib, unga yangi hayot bag‘ishlashini tasdiqlaydi.

G‘ada as-Sammanning ijodiy uslubini chuqur tushunish va uning lirik qahramonining emotsional evolutsiyasini kuzatish maqsadida, avvalgi tahlilda ko‘rilgan “هاتف ليلي”¹¹⁸ dagi sevgining hayotbaxsh quvvatiga zid o‘laroq, “صرخة”¹¹⁸ (Chorlov) nomli asar tahlilga kiritiladi. Agar “هاتف ليلي” da muhabbat najot manbai sifatida tasvirlangan bo‘lsa, “صرخة” she’rida shoira diqqatini tugagan munosabatlarning achchiq xulosasi va ichki ziddiyatlariga qaratadi. Ushbu qisqa, ammo ta’sirli asar sevgi mag‘lubiyatining og‘riqli tomonini va lirik qahramonning o‘z-o‘zini anglash arafasida turganini aks ettiradi.

صرخة

أيها الغريب

حين أفكر بكل ما كان بيننا

أحار،

هل عليّ أن أشكرك ؟

أم أن أغفر لك ؟

أيلول ١٩٧٥

Chorlov (Qichqiriq)

Ey notanish (begona)

Qachonki men o‘rtamizda bo‘lgan barcha narsa haqida o‘ylasam

Hayron qolaman (Adashaman),

Men senga tashakkur aytishim kerakmi?

السمان، عادة. أعلنت عليك الحب. بيروت: منشورات غادة السمان، ١٩٧٦. ص: ٤٤: 118

Yoki men seni kechirishim kerakmi?...

Begonalashuv Timsoli va Lirik Fojia: She'ning asosiy dramatik momenti ma'shuqa murojaatda yotadi. Lirik qahramon uni to'g'ridan-to'g'ri "أيها الغريب" (*Ey notanish/begona*) deb ataydi. Begona so'zi esa asarda timsol bo'lib kelib, bir vaqtlar eng yaqin bo'lgan insonning endi mutlaqo begonalashgani, hissiy yaqinlikning butunlay yo'qolganini anglatadi. Bu "أيها الغريب" dagi sevgining to'fonli qudrat tasviriga keskin qarama-qarshi holatni ifodalaydi. Munosabatlarning moddiy emas, balki ruhiy o'limi ro'y beradi. Asardagi emotsional fon esa qahramon "حين أفكر بكل" (*Qachonki men o'rtamizda bo'lgan barcha narsa haqida o'ylasam*) deya o'tmishni eslaydi. Ammo bu xotiralar unga tinchlik bermaydi, aksincha "أحار" (*adashaman/hayron qolaman*) holatiga keltiradi. Bu, o'tmishning endi shirinlik emas, balki savollar va taraddudlar manbaiga aylanganini ifodalaydi.

Markaziy Paradoks esa shukronalik yoxud Kechirim? She'ning eng kuchli nuqtasi markaziy savol-javobda jamlangan bo'lib, u lirik qahramonning qalbida kechayotgan hal qilib bo'lmaydigan ziddiyatni yaqqol ko'rsatib turadi:

"هل علي أن أشكرك ؟ / أم أن أغفر لك ؟"

(*Men senga tashakkur aytishim kerakmi? Yoki men seni kechirishim kerakmi?*) Bu ikki xil savol munosabatlarning ikki qutbini ifodalaydi. Shukrona aytish (tashakkur) — sevgi bergan go'zal xotiralar va tajribalar uchun qadrlashni anglatadi. Kechirish esa — yetkazilgan og'riq, xato yoki xiyonat uchun g'azabdan voz kechishni anglatadi. Achchiq xulosa shuki qahramonning bu savollarga javob topa olmasligi, muhabbatning shunchalik murakkab va aralash yakun topganini ko'rsatadiki, unda ham yaxshilik, ham yomonlik birdek kuchli. "صرخة" sarlavhasi ostidagi bu taraddudli savollar, ayolning o'z qadri va qadr-qimmatini tiklash uchun munosabatlarga tashqaridan baho berishga urinishini, ammo his-tuyg'ular qoldiqlari bunga to'sqinlik qilishini namoyish etadi. Samman lirikasida ayolning mustaqil qaror chiqarishga bo'lgan intilishini aks ettiruvchi muhim parcha hisoblanadi. U o'zida sevgi qudratini saqlagan holda, sevgining shaxsni qurbon qilishni talab qiluvchi og'ir tomonini ko'rsatadi.

Xulosa. G'ada as-Samman she'riyati zamonaviy arab adabiyotida ayol ovozinig kuchli ifodasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Uning she'rlari shaxsiy kechinmalarni ijtimoiy voqelik bilan uyg'unlashtirib, muhabbatni hayotbaxsh kuch sifatida tasvirlash bilan birga, uning ziddiyatli va fojiali tomonlarini ham ochib beradi. Shoira poetikasida tun, telefon, ovoz, kabi ramzlar markaziy obraz sifatida qo'llanib, mubolag'a, jonlantirish, takror va ritmik tuzilish kabi badiiy vositalar orqali lirizm va dramatik kuch yaratiladi. "أعلنت عليك الحب" (*Senga muhabbatni e'lon qildim*) to'plamidagi "هاتف ليلي" (*Tun qo'ng'irog'i*) she'rida muhabbatning ruhiy qudrati ifodalansa, "صرخة" (*Chorlov*) she'rida tugagan munosabatlarning achchiq xulosasi va ruhiy ziddiyatlari tasvirlanadi. Bu qarama-qarshilik muhabbatning ikki qutbli mohiyatini ko'rsatib, shoira poetikasini yanada chuqurlashtiradi. As-Samman she'rlari milliy ruh va arab jamiyatining muammolarini ifodalash bilan birga, umuminsoniy qadriyatlarni ham yoritadi, shu bois uning ijodi xalqaro miqyosda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shoira an'anaviy vazn va qofiya qoidalaridan yiroqlashib, yangi ifoda shakllarini izlagan modernist sifatida arab adabiyotining taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Natijada esa G'ada as-Samman she'riyati shunchaki hissiyotlar ifodasi emas, balki chuqur falsafiy va ijtimoiy mazmun kasb etuvchi murakkab poetik matnlardan iborat bo'lib, zamonaviy arab adabiyotida modernizmning yorqin namunasiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. غادة السمان، أعلنت عليك الحب. بيروت: منشورات غادة السمان، ١٩٧٦.
2. Xodjayeva R.U., Ziyovuddinova M., Xudjanova D., O'rta asr arab adabiyoti. Darslik.T., 2019
3. Muhiddinova D.Z., Ahmedova Sh. I., Saidova N.M. Arab adabiyoti (Mag'rib mamlakatkari, Fors ko'rfazi mamlakatlari, Saudiya arabistoni va Yaman adabiyoti). Darslik. - T. 2021
4. Arab adabiyoti. Monografiya (mualliflar jamoasi).T., 2016
5. Шуйская Н. "Поэтесса рассказа" из Сирии. //Азия и Африка сегодня, 2005 г., №2.

6. Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Тошкент: Akademnashr, 2010.
7. Turdiyeva Y. The portrait and its functions in the work Elektron European Journal of Research Development and Sustainability (ISSN – 2660-5570). December 2023. Uif:7.455
8. MUTARRIZIYNING “RISOLATUN FIN NAHV” ASARI MO‘JAZ GRAMMATIK MANBA. (2025). *Barqaror Taraqqiyot Va Rivojlanish Tamoyillari*, 3(4), 85-
88. <https://uzresearchers.com/index.php/BTRT/article/view/2528>
9. Jo‘Rayeva, M. (2025). XORIJIY TILLARNI O ‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR:(ARAB TILI MISOLIDA). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(20), 222-224.
10. TOSHMATOVA, S. (2025). Usage of Cooperative Exercises in Developing Writing Skills of EFL Students. *SHOKH LIBRARY*.
11. Mahmudova, S. (2024). SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA IJODKOR OBRAZI TALQINI. «*ACTA NUUZ*», 1(1.1. 1), 288-292.
12. Хамракулова, Ш. А. (2025, November). ФОРМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОЕКТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РАМКАХ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ. In *Conferences* (Vol. 1, No. 9, pp. 507-510).
13. Raxmonov, A. K. (2024). *Mutarriziy va uning “Nahv risolasi”*. In *Sharq tillari tadqiqi va ta’limi muammolari: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari* (pp. 211–214). Oriental University.
14. Raxmonov, A. K. (2025). *Nosir al-Mutarriziyning “Risalatun fin-nahw” asarida grammatik kategoriya talqini va uning o‘zbek tilshunosligidagi muqobillari*. In *Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida: Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari* (pp. 136–139). Alfraganus University.
15. Jurayeva, N., Küçük, S., Soyer, A., & n Kaba, H. (2025). Xorazm Shevalari O ‘g ‘uz Lahjasi Leksikasida Murakkab Tarkibli Dialektal Birliklarning O ‘rni1.
16. Jurayeva, N. (2025). HOSIYAT BOBOMURODOVA SHE’RIYATINING POETIK XUSUSIYATLARI. *Indexing*, 1(1), 91-95.